




KASB – HUNAR MAKTABLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA MOZAIKA O’YINI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH



Ma’murov Nabijon Shokirovich

Farg’ona shahar kasb – hunar maktabi

Rus tili fani o’qituvchisi

Saliyeva Maxmudaxon Adhamovna

Farg’ona shahar kasb – hunar maktabi

Ingliz tili fani o’qituvchisi

Rahmanova Ziyoda Shakirovna

Farg’ona shahar kasb – hunar maktabi

Rus tili fani o’qituvchisi

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan **innovatsion rivojlanish yo‘liga o’tmoqdamiz**. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi?

Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlari ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta‘lim shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim deb nomlanadi.

Zamonaviy ta‘lim texnologiyasi – ta‘lim maqsadiga erishish jarayonining umumiylarini mazmuni, ya‘ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta‘lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo’llanilgan mashg‘ulotlar o’quvchilar egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O’qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o’quv jarayonida o’quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Hozirgi kunda tabiiy fanlar integratsiyalanadi. Bu bilan esa dars samaradorligiga erishiladi, vaqtidan unumli foydalaniladi, o’zlashtirish yaxshi bo’ladi.

Integratsiya darslarida o’yin faoliyatidan ham foydalaniladi. O’yin faoliyati darsda o’quvchini charchog’ini yozadi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, mustaqqil fikrlashga yordam beradi, darsga qiziqishini oshiradi. Bu bilan esa o’qituvchi va o’quvchi 100 foiz qatnashib, darsga qatnashmaslik o’z-o’zidan kamayadi. Biz darsda turli didaktik o’yinlardan samarali foydalanamiz.



O'yin bolalarda kasblar haqida tasavvurni shakllantirish bilan bir qatorda ularni jismonan chiniqishlari hamda, ma'naviy kamol toptirish uchun zamin yaratadi. O'yin jarayonida mustaqil faoliyat ko'rsatishda bolaning ruhiy holati namoyon bo'lishi, o'yin orqali bolalar o'z halqining hayoti, turmush tarzi, kasb – kori, milliy an`analı urf - odatlari til xususiyatlarini tushuntirishdir. Mashg'ulot jarayonida metodik qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar va ko'rgazmalardan savol – javob asosida foydalaniladi.

Mozaika o'yin texnologiyasi

- Ish tartibi
- Vazifa
- Juftliklarga konvert tarqatiladi. Kartochkadagi so`zlarni A4 hajmdagi qog'ozga berilgan so`zlar ustiga mos ravishda joylashtiriladi.
 - Foydalanish variantlari
 - So`zlar o`rniga rasmlardan foydalanish mumkin.
 - Shakllarda berilgan moddalarni ifodalovchi so`zlarni mos o`ringa qo`yiladi.

Milliy o'quv dasturini mohiyati ham dars jarayonlarining yangi ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyaqulov Pedagogik ta'lim texnologiyalari metodik qo'llanma
2. Milliy o'quv dasturi